

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI FANIDAN MALAKA
TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O'RTA MAXSUS VA KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Veterinariya sanitariya ekspertizasi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Veterinariya sanitariya ekspertizasi

1. Organaleptik va laboratoriya usuli yordamida go'shtning sifatini aniqlash;
2. Organaleptik va biokimyoviy usullar yordamida kasal hayvonlarning go'shtini tekshirish;
3. Sut va sut mahsulotlarining veterinariya sanitariya ekspertizasi;
4. Asalning veterinariya sanitariya ekspertizasi;
5. Oziq ovqatda ishlatiladigan parranda tuxumining veterinariya sanitariya ekspertizasi;
6. Baliqlarning veterinariya sanitariya ekspertizasi;
7. O'simliklardan olinadigan oziq ovqat mahsulotlarining veterinariya sanitariya ekspertizasi;

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Organaleptik va laboratoriya usuli yordamida go'shtning sifatini aniqlash	Organaleptik va laboratoriy usuli yordamida go'sht sifatini aniqlash, Goshtning yangiligini aniqlash uchun go'shtdan o'rtacha namuna olish usullari va miqdori, go'shtni bakteralogik tekshirish usullarinnstandart bo'yich go'shtning yangiligini aniqlash usullaringoshtni qaysi hayvonga tegishli ekanligini aniqlash usullari, kasal hayvonning goshtini aniqlash usullari, goshtni qismlarga bo'ish va qonsizlantirish darajasini bilish lozim.	6 ta
2	Organaleptik va biokimyoviy usullar yordamida kasal hayvonlarning go'shtini tekshirish	Go'sht va go'sht mahsulotlari orqali odamlarga o'tadigan yuqumli va invazion kasalliklarni aniqlash usullari, kasal hayvonlarda muskul to'qimalarida uchraydigan tirixanella va sisteserk pufakchalarini aniqlash orqali kasal hayvonga diognoz qo'yish usullarini bilish	4 ta
3	Sut va sut mahsulotlarining veterinariya sanitariya ekspertizasi	Sut va sut mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizadan o'tkazish uchun o'rtach namuna olish va laboratoriyaga yuborish usullari, turli hayvonlarni sutini ekspertizadan o'tkazish usullari, sutning tozaligini, kislotaligini aniqlash usullari, sutning yog'liligi va zichligini aniqlash usullari, sutdagi mikroorganizmlar miqdorini aniqlash usularini bilish lozim	6 ta
4	Asalning veterinariya sanitariya ekspertizasi	Asalning veterinariya sanitariya ekspertizasidan o'tkazish uchun undan o'rtacha namuna olish usullari, organaleptik tekshirish usuli yordamida asalning rangi, xushbo'yiligi konistensiyasi va tamini aniqlash usullarini bilish, asaldagi aralashmalar va bijg'ish darajasini aniqlash va asalning sohtalashtirilganini aniqlash usullarini bilish, bozorda asal sotishga qo'yiladigan veterinariya sanitariya talablarini bilish lozim.	6 ta
5	Oziq ovqatda ishlatiladigan paranda tuxumining veterinariya sanitariya ekspertizasi	Tuxumlarni veterinariya sanitariya ekspertizadan o'tkazish uchun ulardan o'rtacha namuna olish usullari va miqdori, tovuq tuxumini tashqi tamondan tekshirish uchun ovaskopda tekshirish usullari, tovuq tuxumining navlari va sfat ko'rsatgichlarini aniqlash usullarini bilish lozim.	6 ta

6	Baliqlarning veterinariya sanitariya ekspertizasi	Baliqlarni organoleptik va laboratoriya usullari yordamida uning yangiligini aniqlash, baliqlardan o'rtach anamuna olish usullari yangi muzlatilgan baliqlarni ekspertizadan o'tkazish, parazitlar bilan zararlangan baliqlarni ekspertizadan o'tkazish, tuzlangan, qurutilgan va dudlangan baliqlarni ekspertizadan o'tkazish usullarini bilish lozim.	6 ta
7	O'simliklardan olinadigan oziq ovqat mahsulotlarining veterinariya sanitariya ekspertizasi.	O'simliklardan olinadiga oziq ovqat mahsulotlarining veterinariya sanitariya ekspertizadan o'tkazish usullarini bilish nularidan o'rtacha namuna olish usullari va laboratoriyaga jo'natish, mikon aparati yordamida nitrat miqdorini aniqlash usularin o'simliklardan olinadiga oziq ovqat mahsulotlarini laboratoriyada tekshirish uchun eritmalar tayyorlashni bilish lozim.	6 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Muloha za qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. S.M.Murodov "qishloq xo'jalogi mahsulotlarining veterinariya sanitariya ekspertizasi" samarqand 1997

2. S.M.Murodov. Chorvachilik va o'simlik mahsulotlarining vetsaneksper-tizasi va texnologiya asoslari. Qo'llanma Samarqand 1992y.

3. S.M.Murodov. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining vetsaneksper-tizasi, qayta ishlash texnologiya asoslari va stanadartizasiyasi. Qo'llanma. Samarqand 1997 yil.

4. S.M.Murodov. Ikramova K.I. Sutchilik ishi. Qo'llanma. Samarqand 1997 yil.

5. S.M.Murodov. Veterinariya –sanitariya ekspertizasi. Darslik. Samarqand 2006 yil.

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.